

Davlat test markazining “Virtual markaz” axborot tizimining mobil ilovalarini yaratish uchun qo‘yiladigan talablar

Davlat test markazi tomonidan ko‘rsatiladigan xizmatlarga, jumladan oliy ta’lim muassasalariga kirish test sinovlariga talabgorlarni onlayn ro‘yxatga olish tizimi (keyingi o‘rinlarda “Virtual markaz” axborot tizimi) ning mobil ilovalari quyidagi talablar asosida ishlab chiqiladi:

- mobil ilova **android** va **iOS** mobil operatsion tizimlarida ishlash imkoniyatiga ega bo‘lishi;
- mobil ilovalarda “Virtual markaz” axborot tizimi (my.dtm.uz sayti) dagi barcha imkoniyatlar bo‘lishi;
- hozirda abituriyentlar 5 tagacha ta’lim yo‘nalishini tanlashi mumkin bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasi ta’lim muassasalariga o‘qishga qabul qilish bo‘yicha Davlat komissiyasi bayoni yoki tegishli qonunchilik hujjatlari asosida bunga o‘zgartirish kiritilishi mumkinligini inobatga olish;
- zarur hollarda mobil ilovalarga tezkor ravishda qo‘srimcha qo‘sish va kerakli o‘zgarishlarni amalga oshirish;
- ro‘yxatga olish jarayonida tizimning xato va kamchiliklarsiz aniq ishlashini ta’minlash;
- abituriyentlardan hujjat talab qilingan taqdirda ularning fayl ko‘rinishida yuklash imkoniyati bo‘lishi;
- mobil ilovalarning UX/UI dizayni zamonaviy va foydalanuvchilarga qulay bo‘lishi;
- mobil ilovadan 24/7 rejimida onlayn foydalanish imkoniyati mavjud bo‘lishi;
- mobil ilovalardan foydalanishda reklama va chalg‘ituvchi ma’lumotlarning bo‘lmasligi;
- mobil ilovalarga doimiy texnik xizmat ko‘rsatish va uzluksiz ishlashini ta’minlash;
- mobil ilovalar to‘liq yakunlangandan so‘ng dastur kodlarini Davlat test markaziga taqdim etish;
- mobil ilovalarni “App Store” hamda “Play Market” platformalariga Davlat test markazi tomonidan yaratilgan foydalanuvchi nomidan joylashtirish;
- Davlat test markazi bilan hamkorlikda mobil ilovalardan foydalanish bo‘yicha qo‘llanma va videoroliklar yaratish;
- tanlov g‘olibining dasturiy ta’minotlar ishlab chiqish bo‘yicha kamida uch yillik tajribaga ega bo‘lishi, ta’lim sohasida dasturiy ta’minotlar ishlab chiqqanligi va amaliyotga joriy etilganligi maqsadga muvofiq.

**“Virtual markaz” axborot tizimining mobil ilovalarini yaratishda
bajariladigan ishlar va ularning muddatlari**

Bajariladigan ishlar	Bajarish muddatlari	Bajaruvchi tomon
Mobil ilova uchun Davlat test markazi talabidan kelib chiqib, Android hamda iOS uchun dizayn ishlab chiqish	25.04.2022	Tanlov g‘olibi
Mobil ilova uchun Web API ishlab chiqish	25.04.2022	Davlat test markazi
Web API dan foydallanish bo‘yicha qo‘llanma ishlab chiqish	28.04.2022	Davlat test markazi
Mobil ilovaning Android operatsion tizimi uchun mobil ilova ishlab chiqish	25.05.2022	Tanlov g‘olibi
Mobil ilovaning iOS operatsion tizimi uchun mobil ilova ishlab chiqish	05.06.2022	Tanlov g‘olibi
Mobil ilovani test rejimida ishga tushirish.	10.06.2022	Tanlov g‘olibi
Texnik topshiriqni hamda mobil ilovalarni tegishli tashkilotlardan ekspertizadan o‘tkazish.	10.06.2022	Davlat test markazi
Mobil ilovalarni ishchi holatda qabul qilib olish	12.06.2022	Davlat test markazi